

O'ZBEKISTONNING TERRORIZMGA QARSHI KURASH TAJRIBASI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Qahramonova Ziyoda Jasur qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi mamlakatning xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan keng qamrovli strategiyasini aks ettirilib, bu tajriba, avvalo, yuridik bazani kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, maxsus xizmatlar kadrlarini tayyorlash va ijtimoiy profilaktik dasturlarni amalga oshirish orqali amalga oshirilganligi haqida fikr bildirilgan. O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin farovon hayotini ta'minlashga xizmat qilishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ekstremizm, terrorizm, «Mingyillik sammiti», «Tolibon», mafkuraviy immunitet, MOH, «6+2»

XX asrning oxirlarida xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi global muammolar qatoriga diniy ekstremizm va fundamentalizm ofati qo'shildi. Yadroviy urush xavfi ekologik fojia kabi muammolar insoniyat taqdiriga qanchalik vayronkor tahdid qilayotgan bo'lsa, diniy ekstremizm va terrorizmning buzg'unchilik ta'siri ko'lami ulardan kam emas. 2001 yil sentyabrda AQSHda yuz bergan fojia shuni ko'rsatadiki bu ofat iqtisodiy qoloq yoki rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlarga ham birday xavflidir. Jahon miqyosida diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash xalqaro darajada kuchlarning birlashtirilishini taqazo etadi. Bu kurashda eng avvalo diniy ekstremizmning yuzaga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o'rganish lozim. Diniy ekstremizm (lotinchada – extremum eng keyingi, oxirgi degan ma'nolarni anglatadi). Ijtimoiy hayotga yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi va uning ildizlari uzoq o'tmishimizga borib taqaladi. Zero diniy ekstremizm diniy dunyoqarash paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan ijtimoiy voqiyalikdir. Faqat u turli tarixiy davrlarda xilma-xil ko'rinish, shakl va mazmunda namoyon bo'ladi. XX asrning oxirlarida diniy ekstremizm diniy-siyosiy harakat sifatida avj oldi. Shuning uchun ekstremistik ruxdagi diniy oqimlar o'ta jangarilik, murosasizlik g'oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g'oyalar va dindagi modernistik yo'nalish tarafdorlarini ta'qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasida jismonan yo'q qilishgacha boruvchi ashaddiy aqidaparastlar harakati sifatida baholanadi. "Terrorizm" tushunchasi terror tushunchasi bilan bir xil ma'noda qo'llangan. Ammo ayrim hollarda ularda ma'lum tafovutlar bo'lgan. Masalan, "terrorizm" terrorni amalga oshirish deb tushunilgan. Terrorizmga muxolif qurollangan siyosiy guruhlariga xos faoliyat deb qaralgan. Muxolifatchilar davlatning siyosiy yon berishiga erishish uchun fuqarolarga, shu jumladan, chet el fuqarolariga nisbatan zo'rlik ishlatadilar yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitadilar. XX asrning oxirida surunkali terrorchilik harakatlarini uyushtiruvchi tashkilotlar paydo bo'ldi. "Terrorizm" tushunchasi orqali asosan siyosiy qotilliklar uyushtirish bilan shug'ullanadigan muxolif tashkilotlar, "terror" tushunchasi bilan esa davlat apparatining repressiv harakatlari belgilana boshlandi.

Xalqaro terrorizmning o'ziga xos xususiyatlari: Terrorchilar ham, jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo'lishi mumkin, ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan bo'ladi. Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o'zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi. Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o'tib yashirinishi mumkin.

Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarini shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-

quvvatlashga intiladi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1990—1996- yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999- yili 16-fevralda Toshkent shahrida, 1999—2001 -yillari Qirg'izistonning Botken, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004- yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida hamda 2004-yilning iyul oyida Toshkent shahrida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari timsolida o'zini ko'rsatdi. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati birgalikda unga qarshi kurashishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e'lon qildi. To'g'risini aytish kerak, O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq angladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma'ruzasida jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. «Tolibon» harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyati haqidagi ushbu haqqoniy fikr faqat AQSHdagi 2001-yil 11-sentabr fojialaridan so'ng tan olindi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil topgan «6+2» guruhining BMT rahbarligida 1998—1999-yillarda olib borgan faoliyati Afg'onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlash zarur. Bu guruh Afg'oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O'zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqa tashqarisidan Afg'onistondagi vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan ikki davlat — AQSH va Rossiyaning yuqori darajadagi vakillaridan tashkil qilingan edi. Bu guruh bir qator majlislar, muhokamalar va muzokaralar o'tkazib, ularga Afg'onistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jalb qilib, «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha bir qator boshqa hujjatlarni ishlab chiqdi. 1999-yilning 28-iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi. 2001-yilning 28-sentabrda BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373(2001)sonli rezolyutsiyani qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaning tuzilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, Yurtboshimiz 1999-yilning noyabrda Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining (YEXHT) Istanbulda bo'lib o'tgan Sammitida va 2000-yilning 7—8-sentabr kunlari Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus ro'yobga chiqqanidan so'ng, O'zbekiston 2001 -yil dekabr oyida va 2002-yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga ma'ruzalar taqdim etdi. O'zbekistonning AQSH yetakchiligida tashkil etilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibidagi ishtiroki uning bu sohadagi ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir. O'zbekiston xalqaro aksilterror koalitsiyasining faol ishtirokchisi sifatida AQSH harbiy havo kuchlarining transport samolyotlari va vertolyotlariga Afg'onistonda qidiruv-qutqaruv va insonparvarlik yordamini amalga oshirish uchun o'z havo hududini ochib berdi va Xonobodagi harbiy aerodromning bir qismini AQSH harbiy havo kuchlariga vaqtincha foydalanishga berdi. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston YEXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik tashkiloti (SHHT), Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkiloti kabi bir qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining ushbu shartnomalarda qatnashishi uning ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir.

Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019 yil 12 martdagi hal qiluv qaroriga ko'ra ekstremistik va terroristik deb topilgan sahifalar, kanallar va nomlar ro'yxatini e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 14-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi. Qaysi tashkilotlarga nisbatan sudning ularni ekstremistik tashkilot deb topish va O'zbekiston Respublikasi hududida ularning faoliyatini taqiqlash to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lsa, o'sha tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Oliy sudining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish va namoyish etish taqiqlanadi.

SHuningdek, mazkur moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, tayyorlanayotgan, saqlanayotgan, tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan, shuningdek ommaviy axborot vositalarida yoki telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan materiallar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekstremistik materiallar deb topiladi.

SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019 yil 12 martdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, internet jahon axborot tarmog'ining "najot.info" va "hizb-uzbekiston.info" veb-saytlari hamda "Facebook", "Youtube" va "Telegram" axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi nomlardagi profil, kanal va sahifalari ekstremistik va terroristik deb topildi.

Diniy ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siriga berilgan kimsalar har qancha urinmasinlar muborak islom dini, xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchi, e'tiqodini, tinchligimizni oyoqosti qilolmaydilar hamda o'zbek xalqini o'zi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yodidan qaytara olmaydilar. Zero, xalqimiz islom dinidan o'zlarining qabih siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan buzg'unchi kuchlarning asl maqsadini anglab yetdi va mamlakatimizda olib borilayotgan vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik va demokratiyaga asoslangan dunyoviy davlat qurish siyosatini to'la qo'llab-quvatlamoqda.

Insonning tug'ma bo'lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashga (immunitetga ega bo'lmagan chaqaloqlarning uzoq yashay olmasligini eslaylik) xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ulami yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'рни katta. U ijtimoiy

institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuyini, to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqbol g'oyasi ruhi bilan yo'g'rilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr da'vatlariga hozirjavobligini ta'minlash esa har birimiz va hammamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar». Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saifnazarov, T. Sultonov, L. Ilhomjonov, R. Xalimmetov „Dinshunoslik "Toshkent 2019
2. O'quv qo'llanma „diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy asoslari Toshkent islom universiteti nashtiyot – matbaa birlashmasi Toshkent 2005
3. .Narbekov A.V „Dinshunoslik asoslari” Toshkent 2008
4. .D.A.Raximdjano, O.K.Ernazarov „Dinshunoslikga kirish " «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018
5. .Mo'minov A , Yo'ldoshxo'jayev H , M Komilov , Abdusattorov A. A . Oripov „Dinshunoslik " Toshkent-„Mehnat " – 2004
6. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
7. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
8. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
9. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
11. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
12. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
13. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
14. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.

16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
18. Ayonovna A. S. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO'LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.